Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Sablayrolles S.J.F. Présentation: Néologie, nouveaux modèles théoriques et NTIC. JSTOR [en ligne]. 2011, page 4. [cit. 2015-02-25]. Disponible sur: http://www.jstor.org/stable/41683698

(2). Guilbert L. Théorie du néologisme. In: Cahiers de l'Association internationale des études francaises, 1973, n°25, pp. 9–29.

(3). Guilbert L.Grammaire générative et néologie lexicale [en ligne]. 1974, p. 35 [cit. 2015-01-04]. Disponible sur: http://www.persee.fr/web/revues/home/prescript/article/lgge_0458-726X_1974_num_8_36_2272

(4). Sablayrolles S.J.F. De la «néologie syntaxique» à la néologie combinatoire. Langages, Armand Colin. 2011, pp. 39–50.

(5). Sablayrolles S.J.F. Pruvost J. «Les néologismes» Que sais-je? Presses Universitaires de France. 2016, p. 128.

(6). Арутюнова Н. Проблемы морфологии и словообразования. На материале испанского языка. 2007, 288 с. Город https://www.labirint.ru/books/214406/

(7). Benveniste E. Problèmes de linguistique générale, t. 2. Gallimard, Paris, 1974, pp. 171–176.

(8). Sablayrolles S.J.F. La néologie aujourd’hui. Claude Gruaz. A la recherche du mot: De la langue au discours, Lambert-Lucas, pp. 141–157, 2006. ffhalshs-00169475ff p6

Internet manbalari:

1. http://bbouillon.free.fr/univ/ling/fichiers/morpholex/morphlex1.htm#:~:text=3
2. https://vitrinelinguistique.oqlf.gouv.qc.ca/25444/les-emprunts-alanglais/typologie-des-emprunts

Qurbonov Zayniddin Oltinovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Nukus Innovatsion instituti; kurbanovzaynidin1@gmail.com)

QO‘SHRABOT TUMAN “JONBULOQ” MAHALLASIDAGI BULOQ KOMPONENTLI QISHLOQLAR TOPONIMIKASI TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada joy nomlari, toponimlarning turlari, shunindek, Qo‘shrabot tuman Jonbuloq mahallasidagi buloq komponentli qishloqlar toponimikasining kelib chiqishi haqidagi tahliliy ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya, gidronomiya, oronimiya, oykonimiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya, etnotoponim, antropotoponim.*

АНАЛИЗ СЕЛЬСКИХ ТОПОНИМОВ С КОМПОНЕНТОМ «РОДНИК» МАХАЛЛИ «ДЖОНБУЛОК» КОШРАБАДСКОГО РАЙОНА

Аннотация. *В данной статье представлены аналитические сведения о топонимах, типах топонимов, а также о происхождении топонимии сел с родниковым компонентом в микрорайоне Джонбулок Кошрабодского района.*

Ключевые слова: *топонимия, этнография, география, археология, геология, гидрономия, оронимия, ойконимия, полинимия, урбанономия, микротопонимия, этнотопонимия, антропотопонимия.*

STUDY OF THE TOPONYMICS OF VILLAGES WITH A “BULOQ (SPRING)” COMPONENT IN THE “JONBULOQ” NEIGHBORHOOD OF KOSHRABOT DISTRICT

Annotation. *This article presents analytical information about toponyms, types of toponyms, as well as the origin of the toponymy of villages with a spring component in the Jonbulok microdistrict of the Koshrabot district.*

Key words: *toponymy, ethnography, geography, archeology, geology, hydronomy, oronymy, oikonymy, polynymy, urbanonomy, microtoponymy, ethnotoponymy, anthropotoponymy.*

Kirish (Introduction). Toponimikani o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geosiyosiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya va globalizatsiya natijasida yangi nomlar paydo bo‘lishi, eski nomlarning esa yo‘qolib ketishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, xalqning tarixiy va madaniy xotirasini o‘rganish uchun qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bizga ma’lumki, har bir xalq o‘zi yashayaotgan qishloq, shahar va tumanning joylashish o‘rniga qarab nom qo‘yib kelishgan. Shu boisdan joy nomlari juda qadimiy hamda uzoq davrlarning mahsuli bo‘lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma’lumotlarni yetkazib beradi. Shu sababli toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya singari fanlar o‘z predmeti sifatida o‘rganadi. Shuningdek, toponimika tilshunoslikni yuqorida keltirilgan fanlar bilan bog‘lovchi hamda muhim nazariy va amaliy ma’lumotlar berib turuvchi soha hisoblanadi.

Toponimika – geografik obyektlarning nomlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u yer nomlarining kelib chiqishi, tarixi, ma’nosi va funksiyalarini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Toponimlar nafaqat joylarni ifodalash uchun xizmat qiladi, balki xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Toponimika

fani o‘zining xalq geografiyasi, tarix, tilshunoslik va madaniyat bilan bog‘liq jihatlari orqali har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati va an’analari haqida muhim ma’lumotlarni saqlab keladi.

Toponimikaning asosiy vazifalaridan biri geografik nomlarning tarixiy ildizlarini va ularning ma’nolarini o‘rganish hisoblanadi. Geografik nomlar, ko‘pincha, muayyan bir hududning tabiiy xususiyatlari yoki tarixiy hodisalari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni o‘rganish asnosida, o‘sha hudud to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Toponimik tadqiqotlar quyidagilar uchun muhimdir:

1. Tarixiy ahamiyati – toponimlar qadimgi voqealar, urushlar, mashhur shaxslar, etnik guruhlar va madaniy oqimlar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

2. Madaniy ahamiyati – geografik nomlar xalqlarning dunyoqarashini, dinini, urf-odatlarini va e’tiqodlarini ifodalaydi.

3. Tilshunoslik ahamiyati – toponimika tilning o‘zgarish jarayonlari, arxaik so‘zlar va dialektlarni saqlab kelganligi sababli lingvistik tadqiqotlarda muhim o‘ringa ega bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shubhasiz, keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizning muhim qatlamlaridan biri bo‘lgan joy nomlari va uni o‘rganuvchi toponimika faniga qiziqish ortib, jiddiy e’tibor berilmoqda. Masalan, oliy ta’lim muas-sasalari uchun nashr qilingan darslik, o‘quv qo‘llanma, bir qancha dissertatsiya va monografiyalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Dunyo va insoniyat yaratilib, odamlar yashash uchun mehnat qila boshlashibdiki, atrofidagi yerlarni, tog‘lar hamda qir-adirlarni, daryo-ko‘llarni, o‘rmonlarni, yaylovlarni biror nom bilan nomlab kelishgan. Bu haqda Samarqand viloyatidagi toponimlarni o‘rganishda tilshunos olimlar N.Begaliyev, A.Turobovlarning ilmiy tadqiqotlqrida misollar keltirib o‘tilgan [2].

Odamzot hayot ekan, ularning yashashini suvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababdan ota-bobolarimiz suvni muqaddas hisoblab kelganlar. Bizga ma’lumki, qancha-qancha bog‘lar hamda ekin ekiladigan joylar daryo va buloq suvlaridan bahra olib gullab-yashnaydi.

Shu o‘rinda birgina gidronimlarni oladigan bo‘lsak, tilshunos olim N.Uluqov o‘zbek tilida suv obyektlari va inshootlarini ifodalovchi qirqdan ortiq so‘z mavjud bo‘lib, ularga ariq, band//to‘g‘on, botqoq, buloq//chashma, daryo, dengiz, yop, jilg‘a, zovur, zaxkash, irmoq, kanal, kechuv, kollektor//tashlama, koriz, ko‘l, ko‘prik, muzlik, nasos stansiyasi¸ nov//akveduk¸ oydin¸ olish¸ orol, parom, sardoba//qoq, selxona, soy, solma, soqa, suvayirg‘ich, suvlot, suv ombori, sharshara, quduq, hovuz va boshqalar kiradi deb ta’kidlaydi [3]. Shunday ekan, ushbu hududlardagi suv obyektlari nomlari ham o‘z tarixiga egadir. Suv obyektlari nomlari, ya’ni, gidronimlar geografik nomlar ichida eng qadimiy hisoblanib ular ming yillar davomida o‘zgarishga uchramay, iste’molda bo‘lib kelishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jahon toponimikasi to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, o‘z ichiga juda ko‘p xilma-xil madaniyat va tillarni qamrab olgan. Turli hududlarda geografik nomlar turlicha tuziladi va ular o‘ziga xos tarixiy va etnik o‘zgarishlarni aks ettirgan hisoblanadi. Masalan, Yevropa toponimikasi – qadimgi lotin va yunon tillariga asoslangan bo‘lib, tarixiy hamda siyosiy voqealarni o‘zida aks ettirganligi bilan ajralib tursa, Angliya, Fransiya va Ispaniya singari davlatlarda joy nomlari, asosan, lotincha yoki kelib chiqish jihatidan germancha so‘zlardan iborat bo‘ladi.

Osiyo toponimikasida esa, ko‘pincha, diniy va etnik jihatlar aks ettirilsa, islom dunyosida bo‘lsa “Madina” va “Makka” kabi nomlar keng tarqalgan bo‘lib, ular diniy ramzlar bilan bog‘liqdir.

Yurtimizni olib qaraydigan bo‘lsak, geografik nomlar, asosan, turkiy tillardan olingan hamda mintaqaning qadimiy tarixini aks ettirganini ko‘ramiz. Yurtimiz toponimikasi, asosan, ikki asosiy manbadan – qadimgi turkiy va forsiy tillardan kelib chiqqan nomlardan iborat ekanligini uchratamiz. Masalan, shahar nomlaridan “Toshkent” toponimi o‘zbek tilida “Tosh” (qattiq tosh, tosh jins) va “kent” (shahar, qishloq) so‘zlaridan iborat bo‘lib, ma’nosi “toshli shahar” yoki “mustahkam shahar” degan ma’noni anglatadi. Ushbu toponimning izohi va kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlarni tarixiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, ya’ni, Toshkent qadimgi davrlardan beri muhim savdo va madaniy markaz bo‘lib kelgan. Yozma manbalarga e’tibor beradigan bo‘lsak, Toshkentning qadimgi nomlari “Choch” va “Shosh” bo‘lgan. Uyg‘onish davri tarixchilari va arab manbalarida bu nomlar ko‘p tilga olingan. Mahalliy xalqlar orasida “Shosh” nomi “Tosh” so‘ziga o‘xshashligi sababli asta-sekin “Toshkent”ga aylangan deb taxmin qilinadi. Arxeologik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Toshkent hududidan topilgan qadimiy ashyolar va qal’a qoldiqlari uning mustahkam mudofaa tizimiga ega shahar bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois “toshli, mustahkam shahar” degan ma’no tarixiy asosga ega deb hisoblaymiz. Shuningdek, bu haqda olimlarimiz Z.Do‘simov, X.Egamovlar ham o‘z tadqiqotlarida aytib o‘tganlar [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumaniga qarashli suvi va buloqlari ko‘p tog‘li eng chekka hududlardan biri Jonbuloq mahallasi

hamda uning atrofida joylashgan buloq komponentli qishloqlarning ayrimlari, ya'ni, *Jonbuloq, Bo'ronbuloq, Qizilbuloq, Toshbuloq, Mo'rbuloq, Uchbuloq, Soribuloq* toponimikasi haqidagi izlanishlarimizni sizga havola qilmoqchimiz. Bu qishloqlarning nomi bo'lgan so'zlarning kelib chiqish etimologiyasi hamda, dastlab, gidronim sifatida yasalgan bo'lib, keyinchalik, qishloq nomiga o'tganligi haqida ma'lumotlar berib o'tmoqchimiz.

Jonbuloq qishlog'ining joylashish o'rniga qaraydigan bo'lsak, qishloq ikki tomoni baland qirlikdan iborat bo'lgan chuqurlikdagi qishloq. Jonbuloq toponimi ikki asosiy qismdan tashkil topgan: "jon" va "buloq". Ushbu nom mahalliy aholining hududga nisbatan iliq munosabatini, shuningdek, buloqning hayotiy ahamiyatini ifodalaydi.

"Jon" – turkiy tillarda jon so'zi hayot, ruh yoki tiriklikni anglatadi. Geografik nomlarda "jon" so'zi, odatda, o'sha joyning ahamiyatli va qadrlanadigan manba ekanini, ehtimol, hayotiy zaruratni qondiradigan suv manbai ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, bu so'z mahalliy aholi uchun o'sha joyning qadrli va yaqin ekanligini bildirishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, haqiqatdan ham, Jonbuloq qishlog'ining geografik joylashini kuzatsak, qishloq ikki tomoni baland qirlikdan iborat bo'lgan chuqurlikda joylashganini hamda suv qirning yonidan chiqib aholi yashash uylariga oqib kelishini kuzatishimiz mumkin. Qishloq aholisi uchun hayot manbayi bo'lgan birgina buloq qishloq joylashgan qirning yonidan chiqqan ular shu suvdan foydalangan. Aholi tilida "yon" so'zi "jon" tarzida talaffuz qilinish natijasida Jonbuloq bo'lib talaffuz qilinib, qishloqning nomi ham Jonbuloq deb atala boshlangan. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, yurtimizdagi toponimlarning ayrim qismi fonetik yozuv asosida yozib kelinadi. Bunga sabab tilimizda bir qancha shevalarning mavjudligidir. Shuning uchun ham toponimlarda ma'lum bir hududning dialektal xususiyatlari o'z aksini topgan holatlarni ham uchratishimiz mumkin. Shu boisdan nomlarda shevaga xos tovush o'zgarishlari, qisqarishga, ixchamlilikka intilish kabi hodisalar ko'proq kuzatiladi. Bunday holatlar esa joy nomlarining ko'pchiligi fonetik tamoyil asosida yozilishini taqozo etadi. Fonetik yozuv qoidasiga ko'ra, geografik nomlar og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinsa shunday yoziladi.

Bo'ronbuloq toponimi ham ikki asosiy qismdan tuzilgan: "bo'ron" va "buloq". Ushbu toponimik birlikni tahlil qilish uchun bu tarkibiy qismlarning semantik ma'nolariga alohida e'tibor berish muhimdir.

"Bo'ron" – so'zi turkiy tillardan kelib chiqqan bo'lib, kuchli shamol, dovul, yoki tabiatdagi kuchli meteorologik hodisani bildiradi. Bo'ron so'zi, ko'pincha, kuchli tabiiy hodisalarga ega joylarni tasvirlashda ishlatilgan. Bu, odatda, o'sha hududning kuchli shamollar esib turishi yoki tez-tez bo'ronlar kuzatilishi bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

Haqiqatdan ham, biz tadqiq qilayotgan hudud kuchli shamollar esadigan yoki bo'ronli hududda joylashgan. Shu sababli Bo'ronbuloq toponimi joyning kuchli shamolli yoki bo'ronli hududda joylashgan buloq ekanligini anglatadi. Aholi esa shundan kelib chiqib, qishloq nomini ham Bo'ronbuloq deb atay boshlagan. Bunday nomlashi mahalliy aholining atrof-muhitni nomlash an'analariga, geografik sharoitlariga va tabiiy hodisalarga nisbatan sezgirligini aks ettirgan.

Qizilbuloq toponimi ikki asosiy qismini o'z ichiga oladi: "qizil" va "buloq". Ushbu nom o'zbek va turkiy toponimiyalarda tez-tez uchrab, o'sha hududning tabiiy xususiyatlari yoki rang tasviri bilan bog'liq holda shakllangan bo'lishini ham bildiradi. Toponimni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, "qizil" – turkiy tillarda qizil rangni ifodalaydi. Toponimikada "qizil" so'zi, ko'pincha, hududning tuprog'i yoki tabiiy manzarasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tuproqning qizg'ish yoki qizil rangda bo'lishi yoki tog' jinslarida qizil rangli elementlarning mavjudligi shunday nomlanishga sabab bo'ladi. "Qizil" so'zi xalq orasida qizg'ish rangli tuproq va toshli hududlarga nisbatan keng qo'llanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatiki, haqiqatdan ham, Qizilbuloq qishloq aholisi foydalanadigan ichimlik suvi qizil tosh orasidan sizib chiqayotganligi uchun ham ular qishloqni ham shu nom bilan atab kelishadi degan xulosaga keldik.

Toshbuloq toponimi ham "tosh" va "buloq" ikki tarkibiy qismdan iboratdir. Ushbu nom, odatda, joyning tabiiy xususiyatlariga ishora qilib, undagi toshli hududda joylashgan suv manbasini bildiradi. Toponimni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, "tosh"–turkiy tillarda tosh yoki tog' jinslarini anglatadi. Toponimlarda "tosh" so'zi, odatda, joyning tabiati toshloq yoki tog'lik ekanini ifodalaydi. Bunday nomlanish, ko'pincha, atrofidagi hududlarning qattiq jinslardan iboratligi yoki toshli landshaftning ko'zga ko'rinarli belgisi bo'lganda ishlatiladi. Bu esa joyda tog' jinslari ko'p yoki u yer toshlar bilan qoplangan ekanidan dalolat beradi.

Toponim sifatida Toshbuloq nomi mahalliy aholining atrof-muhitni qabul qilishi va tasvirlash usullarini aks ettiradi. Bunday nomlanish tabiiy-geografik xususiyatlarga asoslanib, joy haqida tez va aniq tasavvur yaratadi. Yurtimiz va boshqa turkiy hududlarda "tosh" so'zi ko'plab toponimlarda uchraydi, bu esa

xalq orasida qattiq tog‘ jinslari yoki toshlar bilan bog‘liq joylarni ajratib ko‘rsatishga bo‘lgan intilishdan dalolat beradi. Toshbuloq qishlog‘i toshloq yoki tog‘li hududda joylashgan bo‘lib, bu nom o‘sha joyning tabiiy muhitini aks ettirib, suv manbayi bo‘lgan buloqning suvi toshlar orasidan sizib chiqib kelishi va toshloqli bir joyda joylashganligi bois qishloq aholisi uni Toshbuloq deb nomlaydi.

Mo‘rbuloq toponimi ikki qismdan iborat: “mo‘r” va “buloq”. Bu nom o‘zida hududning tabiiy xususiyatlari yoki suv manbayi bilan bog‘liq ba’zi o‘ziga xosliklarni aks ettiradi. Toponimni tarkibiy jihatda tahlil qilsak, “mo‘r” – o‘zbek tilida “mo‘r” so‘zi, ko‘pincha, “moy”, ya’ni moy yoki yog‘ bilan bog‘liq narsalarni anglatishi mumkin. Turkiy tillarda “mo‘r” so‘zi ayrim hollarda qora rang bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, xalq orasida “mo‘r” iborasi yerning qoramtir rangiga yoki minerallar (masalan, temir oksidi) aralashmasiga ega bo‘lgan tuproqni ham bildiradi.

Mo‘rbuloq nomi qoramtir tuproqli yoki mineral moddalar aralashgan joydagi buloqni anglatadi. Bunday joylarda tuproq tarkibi o‘zgacha bo‘lib, suv chiqadigan buloq atrofidagi yer qoramtir yoki to‘q rangda bo‘ladi. Toponim sifatida “Mo‘rbuloq” xalq orasida suvning sifati, buloq atrofidagi tuproqning rangi yoki uning kimyoviy tarkibi haqida tasavvur beradi. Shu sababli “mo‘r” so‘zining ishlatilishi xalqning atrof-muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini, xususan, tuproq rangini aks ettirishda qanchalik nozik kuzatuvchanligini ko‘rsatadi. Mo‘rbuloq toponimi qoramtir yoki minerallarga boy tuproqli joyda joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Bu nom hududning rang va tarkib xususiyatlarini aks ettiradi va atrofdagi tuproqning qoramtirligi yoki mineral tarkibini ifodalaganligi uchun aholi shunday nom bilan ataydi.

Uchbuloq toponimi o‘zbek tilida ikkita asosiy so‘zdan iborat: “uch” (son) va “buloq” (manba, chashma). “Uch” so‘zi sonni anglatadi va bu yerda uchta narsaning mavjudligini bildirishi mumkin. Masalan, uchta buloq, uchta suv manbayi yoki uchta muhim joy. Nom qadimiy davrlarda o‘sha joyning asosiy xususiyatlarini tasvirlagan. Masalan, uchta buloq hududda yashovchi odamlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Toponimlar ko‘pincha mahalliy xalq tomonidan ularga berilgan, shuning uchun bu atamaning ma’nosini to‘liq tushunish uchun mahalliy tarix, urf-odatlar va til xususiyatlarini o‘rganish muhim sanaladi. Shu bois qishloqining nomi ham geografik jihatdan joylashuvidan, ya’ni uchta buloq borligidan kelib chiqib, “Uchbuloq” deb nomlanib kelgan.

“Soribuloq” toponimi ham ikki “sori” va “buloq” so‘zlaridan tashkil topgan. O‘zbek tilida “sori” so‘zi bir nechta ma’noni anglatadi. Ulardan biri qadimiy fors tilidagi “sor” so‘zidan kelib chiqib, “soy” yoki “suv oqimi” ma’nosini anglatadi. Shuningdek, “sor” ba’zan tekislik, yaylov yoki suv bo‘yidagi hudud ma’nosida ham qo‘llanilgan. “Sori” ba’zan “suvga oid”, “suvga yaqin” ma’nosini ifodalovchi belgi sifatida ham ishlatilgan. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo‘lsak, haqiqatdan ham, buloqning suvi sariq rangdagi qattiq qurtqa tosh orasidan sizib chiqadi. Bu hudud aholisi suv chiqib kelayotgan joyning belgisiga qarab, ya’ni, rangni bildirgan “sariq” so‘zi xalq og‘zaki nutqda “sori” tarzida talaffuz qilinib Soribuloq deb nomlanib ketgan.

Toponimlarning ikkinchi tarkibiy qismi “buloq” – tabiiy suv manbayi, ya’ni chashma yoki buloqni ifodalaydi. “Buloq” so‘zi o‘zbek va turkiy xalqlarda juda keng tarqalgan bo‘lib, odatda, buloqli yoki suvli joylarni bildiradi. O‘zbek toponimikasida esa “buloq” so‘zi daryo, chashma yoki boshqa suv manbalariga nisbatan keng qo‘llaniladi va bu hududda tabiiy suv manbasi borligini bildiradi. Buloqlar, ko‘pincha, o‘troq yoki ko‘chmanchi xalqlar uchun muhim manba bo‘lib, yashash joylarini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu joylarda suv manbayi xalq uchun yashash va obodlik manbayi hisoblangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jahon va o‘zbek toponimikasi xalqlarning madaniyati, tarixi va tabiat bilan munosabatlarini aks ettiruvchi qimmatli ilmiy soha hisoblanadi. O‘zbek toponimikasi Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy madaniyati va tarixiy o‘tmishi haqida boy ma’lumotlarni saqlab kelmoqda. Shu bois bu sohani o‘rganish va asrab-avaylash har bir xalq uchun katta ahamiyatga ega. Toponimikaning ko‘pgina dalillari xarakter jihatdan xilma-xil bo‘lgan lingvistik, tarixiy va geografik materiallar jalb qilingandagina to‘g‘ri izohlab berilishi mumkin. Geografik obyektlarga nom qo‘yish va ularni qayta nomlash jarayonlarini o‘rganish, bu sohada tegishli muassasalarga tavsiyalar berish toponimikaning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, toponimika yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ko‘rinib turibdiki, biron-bir geografik yoki bir guruh nomning kelib chiqishi va tarixini mumkin qadar aniqroq tushuntirib berishni maqsad qilib olgan toponimik tadqiqot oson ish emas, balki ko‘p vaqt hamda katta kuchni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, 2017, “O‘zbekiston”, 592-bet.

(2). Begaliyev N., Turobov A. Samarqand toponimiyasi. SamDCHTI nashri, 2015, 156-bet.
(3). Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent, 2008, “Fan”, 192-bet.
(4). Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qiqacha izohli lug‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun, “O‘qituvchi”, Toshken, 1977.
(5). Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent, 2007, “Yangi asr avlodi”, 88-bet.
(6). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. “Universitet”, Toshkent, 1977.
(7). Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2006, 320-bet.
(8). Xudoyberganov R.Y. [va boshq.]. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [matn], lug‘at, Toshkent, 2022, “Donishmand ziyosi”, 624-bet.
(9). B.O‘rinboyev. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohi lug‘at), Samarqand, 2003, 264-bet.
(10). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2007, 687-bet.

Kuraxmedov Azamat Erkinovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, t.f.n.;e-ail:azamat@bk.ru)

SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Samarqand jadidchilarining Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o‘rni haqida ilmiy mulohazalar keltirilgan. Yangi usuldagi maktablarning ko‘payishi, musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, jadidlar o‘lkadagi matbuot sahifalarida maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo‘lidagi ahamiyatlari haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ‘ib etishlari kabi mazasalalr yuzasidan fikrlar izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, jadidchilik, jamiyat, erkinlik, ozodlik, adolat, harakat.*

Курахмедов Азамат Эркинович (доцент Самаркандского государственного института иностранных языков)

РОЛЬ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИСТОВ В ДЖАДИДСКОМ ДВИЖЕНИИ ТУРЦИИ

Аннотация. *В статье представлены научные комментарии о роли самаркандских джадидистов в туркестанском джадидском движении. Распространение школ нового образца положительно влияет на общественно-политические идеи мусульман, а джадиды пропагандируют джадидизм, написав на страницах прессы страны научно-теоретические и публицистические статьи о природе, назначении и значении школ.*

Ключевые слова: *джадид, джадидизм, общество, свобода, освобождение, справедливость, действие.*

Kurakhmedov Azamat Erkinovich (Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages)

THE ROLE OF SAMARKAND JADISTS IN THE JADID MOVEMENT OF TURKEY

Annotation. *This article presents scientific observations on the place of Samarkand Jadidists in the Turkestan Jadid movement. The article explains such issues as the proliferation of new-style schools, their positive impact on the socio-political ideas of Muslims, and the Jadidists' promotion of Jadidism by writing scientific, theoretical, and journalistic articles in the country's press about the essence, purpose, and importance of schools on the path to development.*

Key words: *jadid, jadidism, society, freedom, liberation, justice, action.*

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmida butun Turkiston o‘lkasida kuzatilgani kabi, Samarqand madaniy hayotida ham ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda o‘ziga xos yangi oqim, ya’ni *jadidchilik* sohasi tarix sahnasiga kirib keldi. Jadidlarning asosiy maqsadlari o‘lkada «yangi usul» maktablarini ochib, eski o‘quv usulini yangicha asosda qurish edi. Samarqandda bunday maktablarga asos solgan atoqli vakillardan – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy va Hoji Muinlarni ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Sadriddin Ayniyning yozishicha, 1903-yili Abdulqodir Shakuriy tashabbusi bilan Rajabamin qishlog‘ida yangi usul maktabi ochiladi. Bu maktab uchun Abdulqodir Shakuriy tomonidan «Jome’ ul-hikoyat» [1] nomli darslik yaratiladi. Abdurauf Fitrat «Bayonoti sayyohi hindi» («Hind sayyohining bayonoti») kitobida qahramon tilidan «Samarqandda bir necha yangi boshlang‘ich maktablar bo‘lib, ular ichida yang yaxshisi Shakuriy maktabidir. Bu maktab asta-sekin kerakli cho‘qqini egallaydi. Samarqand maktablarini ko‘rib chiqib, ulardan mamnunman», deb ta’kidlaydi (2).

Muhokama. 1903-yili Samarqand shahrining Xo‘ja Nisbatdor mahallasida Hoji Muin boshchiligida usuli jadid maktabi ochilgan. U maktabdorlikdan daromad olishni o‘ylamagan, ma’rifatparvar zot maktab-maorif yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib «Rahnamoyi savod» nomli alifbo nashr ettirgan va kutubxona tashkil et-